TA’LIM MUASSASALARIGA INNOVATSIYaLARNI KIRITIShNING ZARURLIGI

Nurillayev Muhammadxan Isroilxon o‘gli
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.11581934

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini fan, ta’lim va ishlab chiqapishning integratsiyalashuvi asosida shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda “oliy ta’lim qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish”[1] kabi muhim vazifalar belgilandi. Bunda iqtisodiyot oliy ta’lim muassasalari talabalarini o‘qitishda yaxlit va tizimli integrativ bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va bilimlarini amaliy faoliyatga tatbiq etish hamda bo‘lajak mutaxasislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyusiya sharoitida muvaffaqqiyatli faoliyat ko‘rsata oladigan jamiyat a’zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo‘naltirishda davlat xizmatini hamda umumiy o‘rta ta’limning ko‘p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta’lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni ko‘llash, ta’limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo‘l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o‘rganish ayni muddaodir.

Ta’lim jamiyatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqning kelajagi va uning intellektual va ma’naviy rivojlanishi ko‘p jihatdan ijtimoiy institutlar, ta’lim muassasalarining tuzilishi, uning turli xil o‘quv fanlari, ma’lumot taqdim etish usullari bilan o‘ziga xos to‘yinganligiga bog‘liq. Shuning uchun barcha rivojlangan mamlakatlarda davlatning asosiy funksiyalaridan biri bo‘lgan ta’limni amalga oshirish uchun har yili unga inson va moddiy resurslarning katta miqdori sarflanadi. Ammo shuni xam ta’kidlash joizki, ta’lim tizimi uning barcha elementlari bilan uyg‘un holda olib boriladigan yangilanishga muhtoj.

Jahonda bo‘layotgan globallashuv va ta’limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj ham yanada kuchaydi. Xususan, malakali mutaxassislarning kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim mezon sifatida kasbga yo‘naltirilgan vazifalar bilan bog‘liq sifatlarni belgilash, bitiruvchilarning kasbiy kompetentlik sifatlarini muhim sifatlar qatoridagi uchlikka kiritish, bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash holatini o‘rganish, ularning ixtisoslik sohalari bo‘yicha kasbiy kompetentligini tadqiq etish, pedagogik tashxislashning innovatsion metodlarini izlab topish va ulardan unumli, samarali foydalanish hamda amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar asosida mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta’lim muassasalari professor-pedagoglarining innovatsion faoliyatini takomillashtirishga erishish, talabalarning bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish jarayonlarini

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ”O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son Farmoni. 2019 yil 9 oktabr.

loyihalashtirishda markaziy o‘rinni talaba shaxsiga berish, uning samarali bilimlarga mustaqil ega bo‘lish ehtiyojini qondiruvchi sifatli didaktik uslubiy manbalarni ishlab chiqib, ta’lim amaliyotiga joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Ta’limning asosiy maqsadi - zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo‘lgan ma’naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir. Jamiyat rivojlanar ekan, hayotiy talablarning darajasi ham ortib boradi. Demak, ilmiy bilimlarning hajmi kengayib, ilmiylik darajasi chuqurlashib borar ekan, mantiqiy fikrlash va muammolarni tezda hal etishga bo‘lgan talab yanada kuchayib boradi. Bu fikrdan kelib chiqqan holda ta’lim tizimi bugungi kun talabini hisobga olgan holda emas, balki kelajak talablarini aniqlagan va hisobga olgan holda ish olib borishi kerak degan xulosaga kelamiz. Chunki, bugungi kun talablari kelajakda jamiyatning asosiy o‘zagiga aylanadi. Demak, ta’lim tizimi talabalarni bugungi kundagi hayotga emas, balki kelajakdagi hayotga tayyorlashi lozim. Bu ham ta’limning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Mamlakatimizda iqtisodiyotga yo‘naltirilgan oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimini barpo etish va rivojlantirish tajribasi katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg‘otadi, chunki u zamonaviy iqtisodiy ta’limning ahvolini tahlil qilish va nazariy jihatdan izohlash, uning uzluksiz kasb ta’limi tizimi bilan uyg‘unlashtirish va samarali didaktik rivojlanishni bashorat qilish vazifalarini hal etish imkonini beradi.

Ta’limning innovatsionligini aniqlovchi muhim omillardan biri ta’lim dasturlaridir. Ta’lim dasturlarining innovatsionlikka ta’siri quyidagilar orqali amalga oshiriladi: tarkibi, mazmuni va muammoligi; nafaqat tushunishni, balki mahoratni ham ta’minlaydigan mo‘ljal; rasmiy va norasmiy ta’limni qo‘shish; ko‘p variantlilik, alternativlik (muqobillik) va ko‘p aspektlilik; istiqbollik; ta’lim dasturining bajaruvchilar tarkibi va boshqalar.

Innovatsion ta’lim dasturlari talabalarda quyidagi: mavjud bo‘lganlarini yangicha ko‘rish va buning asosida yangi yechimlarni taklif etish; rivojlangan tasavvurni va tasavvur hamda obrazlarni faoliyatning bir sohasidan boshqasiga ko‘chirish; tanlangan faoliyat sohasida yangi o‘rinlarni egallash niyatida farosatli tavakkallik; ijodiy faoliyat metodlaridan foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirishi lozim.

Ta’limning innovatsionligini tavsiflovchi boshqa muhim omil innovatsion dinamikadir**.** Bu, jarayonning bosqichlarini, boshlang‘ich ilmiy bilimlarni natijalovchi mahsulotga (tovar yoki xizmatlarga) aylantirish metod va usullarini ifodalaydi. Ta’limning innovatsionligi nafaqat uning didaktik tuzilishiga, balki ijtimoiy muhim natijalarga – pedagogning psixologik siymosiga ham tegishlidir. Pedagogning innovatsion faoliyati borliqni o‘zgartirishga, muammoli vaziyatlarni aniqlash va ularni hal etish usullariga qaratilgan. Pedagog bilan talabaning yangicha munosabatlarida majburlash va buyruqlariga bo‘ysundirish bo‘lmasligi, balki teng hamkorlik va birgalikda ishlash tuyg‘u-hislari bo‘lishi lozim.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida pedagogik texnologiyalarning rivojlanishida burilish kerakli axborotni mustaqil izlab topish, muammolarni aniqlash va ularni oqilona yechish yo‘llarini topish, o‘zlashtirilayotgan bilimlarni tanqidiy tahlil qilish va yangi vazifalarni yechishda ulardan foydalanishko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Tayyor bilimlarni o‘zlashtirish va umumlashtirish maqsad emas, balki insonning intellektual rivojlanishiga ko‘maklashuvchi vositalardan biri hisoblanadi. Har qanday ijtimoiy texnologiyaning mazmuni va vazifasi jarayonni optimallashtirishdan, faoliyatning ijtimoiy samaraga erishish uchun zarur bo‘lmagan barcha turlarini undan chiqarib tashlashdan iborat.

Texnologiyalardan foydalanish – bu boshqaruv xarajatlarini kamaytirish, boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirish imkoniyatini beruvchi bosh resurs hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanishiga qarab daromad manbai sifatida bilimlar, innovatsiyalar va ularni amalda qo‘llash usullari ko‘proq amal qilishi ayniqsa bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy rivojlanishda bilim birinchi darajali ahamiyat kasb eta boshlashi ijtimoiy hayotda ta’limning o‘rni, ta’lim va iqtisodiyot kabi sohalarning o‘zaro nisbati butunlay o‘zgarishiga olib keladi. Yangi bilimlar, axborot, o‘quv va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, ularni yangilash va rivojlantirishga qarab mo‘ljal olish postindustrial iqtisodiyotda band bo‘lgan insonlarning fundamental xususiyatlariga aylanadi. Mazkur jamiyatda ta’lim sohasi jamiyat hayotining iqtisodiy sohasi bilan sezilarli darajada kesishadi, ta’lim faoliyati esa uning iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi muhim omilga aylanadi. Yana shuni ham unutmaslik kerakki, axborot va nazariy bilim mamlakatning strategik resurslari hisoblanadi va ta’limning rivojlanish darajasi bilan bir qatorda, uning suvereniteti va milliy xavfsizligini ko‘p jihatdan belgilaydi.

Ta’lim sohasi uchun o‘quv muassasalarida olgan bilim, ko‘nikmalarini va tajribani inson munosabatlari hamda jamiyat tuzilishining oqilona modelida foydalana oladigan, o‘zgarib borayotgan bozor muhitida tez moslasha oladigan, tavakkalchilik sharoitida mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, bir xil bo‘lmagan yechimlarni topa oladigan, kirishimli va ijtimoiy-moslanuvchan mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunning asosiy talabidir.

Shundan kelib chiqqan holda oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiy fanlarni o‘qitish yangicha yondashuvni talab etadi, bu esa kasbiy fanlarni o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish texnologiyasini loyihalash va ishlab chiqish demakdir.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ”O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son Farmoni. 2019 yil 9 oktabr.
2. Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. ПҚ-3775 23-сон, 474-модда. 05.06.2018 й.
3. Fayzievna K.M., Narmuratovna M.M., Mamurjanovna B.U. Opportunities of innovation technologies in higher education. International Journal on Integrated Education 3 (12), 282-285.
4. Khakimova M.F., Kayumova M.S. Factors that increase the effectiveness of hybrid teaching in a digital educational environment. Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks ISBN: 978-1-4503-9905-0